

USMONLILAR IMPERIYASINING BUYUK BRITANIYA BILAN OLIB BORGAN TASHQI ALOQALARI VA UNING SIYOSATI VA IQTISODIYOTIDAGI TA'SIRI

Farxodjonov Farruh

NamDU, Tarix yonalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Usmonlilarni Britaniya bilan olib borgan tashqi siyosati, sulton va ingliz qirolichasi o'rtasidagi yozishmalar va ularning o'zaro tashqi aloqalaridagi o'rni haqida yozilgan. Ingliz birinchi elchisi Uilyamning diplomatik aloqalarda erishgan natijalari va uning Britaniya iqtisodiga foyda olib kelgan bitimi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Usmonlilar imperiyasi tashqi siyosatda ohirigacha o'z qudratini saqlab qololmagani sababkari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Usmonlilar, Britaniya, inglizlar, savdo, bitim, iqtisodiy-siyosiy, sulton, qirolicha, diplomatiya, tashqi aloqalar, turk, siyosat.

Аннотация: В данной статье описывается внешняя политика османов с Британией, переписка между султаном и английской королевой и их роль в внешних отношениях. Представлены сведения о результатах, достигнутых первым английским послом Уильямом в дипломатических отношениях, и его сделке, приносящей пользу британской экономике. Перечислено причины потери своей мощи в мировой дипломатии Османов.

Ключевые слова: османы, Британия, англичане, торговля, сделка, экономико-политическая, султан, королева, дипломатия, международные отношения, турки, политика.

Annotation: This article describes the foreign policy of the Ottomans with Britain, the correspondence between the sultan and the English queen, and their role in the foreign diplomacy. Information about the results achieved by the first English ambassador William in diplomatic relations and his deal that benefited the British economy is presented. The reason given is that the Ottoman Empire could not maintain its power in foreign policy until the end.

Key words: Ottomans, Britain, British, trade, deal, economic-political, sultan, queen, diplomacy, foreign relations, Turkish, politics.

XIII asr oxiri - XIV asr boshlarida. Usmonli beyligi o'z hududini ancha kengaytirdi. Usmonlilar Vizantiya hududiga yurushlarni davom ettirdi. Vizantiyaliklarga qarshi urushlarda boshqa qo'shnilari hali yosh davlatga qarshilik



ko'rsatolmasligi yordam berdi. Germiyan beyligi mo'g'ullar bilan, yo vizantiyaliklar bilan jang qilgan. Karesi beyligi esa shunchaki zaif edi. Anadoluning shimoli-g'arbida joylashgan Chandar-o'g'li (Jandaridlar) beyligi hukmdorlari Usmon beyligini bezovta qilmagan, chunki ular ham asosan mo'g'ul hokimlariga qarshi kurash bilan band edilar. Shunday qilib, Usmonli beyligi barcha kuchlarini g'arbdagi istilolar uchun ishlatishi mumkin edi va birin ketin g'arbiy hududlar Bolqon yarimorolida joylashgan shahar va davlatlarni bosib oldi. O'z g'alabali yurishlarini nafaqat g'arbda balki sharqda ham davom ettirdi.[1: 7] Usmonlilar davlatining tarixi, uning siyosiy va harbiy yukslish davri (XV- XVII asrlar), jahon tarixining muhim bir qismidir. Usmonli davlati siyosati ko'p qirrali va muhim voqealarga to'la bo'lsa butun jahon tarixi uchun ahamiyatli, uni o'rganish batafsilroq ko'rib chiqishga va O'rta asrlarning oxirlarida Yevropa va Yaqin Sharqda sodir bo'lgan voqealarni tushunishga yordam beradi. Shuni aytish kerakki, urush va tashqi aloqalarni muayyan davlatlarning siyosiy rivojlanishining umumiy kontekstida o'rganish, zamonaviy tarixchi E.V. Runga [2: 3], ham nazariy, ham aniq tarixiy jihatdan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning asosiy muammosiga aylanib bormoqda. Usmonlilar davlati kabi imperiyalarning mavjudligi ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlatlar tarixchilarni doimo qiziqtirib kelgan, chunki ular sivilizatsiyaning muvaffaqiyatli va ba'zan muvaffaqiyatsiz tajribasini namoyish etadi. Usmonli davlati katta va uzoq vaqt mavjud bo'lgan imperiyalardan biri edi. Usmonli imperiyasi Bolqon yarim oroli, Sharqiy, Shimoliy Afrika, Janubiy va Shimoliy Kavkaz mamlakatlari hududlarini o'z ichiga olgan. U Birinchi jahon urushi tugaguniga qadar, to'g'rirog'i, 1923 yilda respublika deb e'lon qilinmaguncha, ushbu hududlar imperiya mulki deb hisoblangan.

Usmonli imperiyasi Bolqon hududini egallagach dunyo siyosatida anchagina qudratga ega bo'lib oladi. Yevropaning qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Fransiya qiroli Fransisk I 1519 yil Gabsburglardan bo'lgan Karl V Muqaddas Rim imperiyasi imperatori bo'lganidan norozi edi va bu norozilik kelajakda ular o'rtasida urush boshlanishiga sabab bo'ldi. Ikki yirik mamlakat to'qnashuvi Usmonlilarga Yevropa siyosatida o'z tashqi siyosatini va ta'sirini kuchaytirishga yo'l ochib berdi. 1525 yilda Fransisk Karl Vga asrga tushganidan so'ng Turk sultonidan yordam so'radi. [3: 102]

Buyuk Britaniya esa Usmonlilar davlati bilan doimiy diplomatik aloqalarni o'rnatgan birinchi G'arbiy Yevropa davlatlaridan biri edi. 1583 yilda Uilyam Harborn Buyuk Britaniya tomonidan Usmonlilar imperiyasiga birinchi elchi etib tayinlangan edi va diplomat sifatida o'z vazifalarini bajargan. Yusuf Ogah Afandi esa Sultoning Londondagi elchisi etib tayinlangan. [3: 102] 1581 yilda inglizlar bilan birinchi savdo bitimi tuzilgan bo'lsada, XVII asrga kelibgina Levant kompaniyasiga savdoni amalga

oshirishga ruxsat berdi. Turk-Ingliz diplomatiyasida XVII asrga qadar ko'zga tashlanarli voqealar sodir bo'lmadi. Buyuk Britaniyada sanoat inqilobi sodir bo'lganidan so'ng, yangi bozorga bo'lgan talab Buyuk Britaniya va Usmonlilar o'rtasida iqtisodiy va siyosiy diplomatik aloqalarni yangi sahifasini ochib berdi. Qirolicha Yelizaveta Sulton Murod III ga bir necha bor do'stona maktublar yozib, sultonga ispanlarga qarshi siyosiy-diniy ittifoq tuzishni taklif qiladi. Maktublaridan birida u o'zini "Nasroniylar orasida yashaydigan har qanday budparastlikdan va Masihning ismini yolg'on e'tirof etuvchi har qanday narsadan xristian dinining yengilmas eng kuchli himoyachisi" deb atagan. Yelizaveta o'z maktubida albatta katoliklarni nazarda tutgan edi. Xatda Yelizaveta Murod III ni "Turk imperiyasining eng qudratli hukumdori, Sharqiy imperiyaning yagona suveren manarxi" deb atagan. Qirolicha va Sulton o'rtasidagi yozishmalar 1580-yillarda ham davom etdi. Murod III ning vafotidan keyin ham sultonning onasi qirolicha bilan yozishmalarni davom ettirdi hatto ular sovg'alar ham almashishdi. Keltrilgan ma'lumotlarga ko'ra Yelizaveta volidayi sultonga shoxona arava va soat mexanizmi sovg'a qilgan. Usmonlilar bilan savdo bitimini imzolashga erishgan birinchi ingliz elchisi Uilyam Horborn 1923 yilgacha Britaniya savdogarlari uchun Usmonlilar eshigini ochib bergan edi. Ushbu bitimda ingliz savdogarlariga imperiya hududida erkin savdo qilish imkonini berdi, ularga imtiyozli bojxona to'lovini joriy qildi. Shuningdek Usmonlilar hududida katoliklar yoki musulmonlar tomonidan hujumga uchruga barcha inglizlarni himoya qilgan. Horborn muzokaralar yordamida ilgari tuzilgan turk-ispan tinchlik bitimini buzishga muvaffaq bo'ladi.

XIX asrda tuzilgan Angliya-Turkiya savdo konventsiyasi Britaniya diplomatiyasi uchun katta muvaffaqiyat bo'ldi. Bitimga ko'ra inglizlar to'qqiz foiz (amadiyye) so'lig'ini to'lashgan, umumiy eksportdan esa 12 foiz soliq talab qilingan. Ushbu davrda barcha tovarlar inglizlardan olib kelinadi. Imperiya bozoriga ingliz mahsulotlari kirib kelgach Usmonlilar tarafdin monopolialarni yo'qotish uchun yangi tizim qo'llaniladi. Ammo monopolialarning tugashi davlat byudjetini keskin tushirib yuboradi. Yangi tizimga ko'ra 9 foizga ko'tarilgan boj solig'i ushbu yoqotishlarni qoplashi kutilgandi, lekin yo'qotishlarni bir qismini qoplagan edi holos. [4: 17]

1-Jadval Buyuk Britaniyadan Usmolilarga eksport qiymati va Buyuk Britaniyaga Usmonlilardan import qilingan mahsulotlar qiymati.

Year	British exports £	British Imports £
1827	1,078,920	598,650
1828	423,151	731,943
1829	1,394,588	431,062
1830	2,745,723	726,065

1831	2,113,928	759,797
1832	2,091,590	654,146
1833	2,450,204	643,958
1834	2,467,944	741,280
1835	2,706,591	879,089
1836	3,649,925	1,030,110
1837	2,747,807	841,395
1838	4,672,720	789,118
1839	3,578,561	1,196,430
1840	3,673,903	1,240,812
1841	3,630,792	1,212,749
1842	4,688,207	1,168,036
1843	5,440,941	1,243,759
1844	7,688,406	1,292,989
1845	7,620,140	1,465,972

Source Bailey(1942) British and the Turkish reform movement 70-74

Yuqorida 1-jadvalda ko'rib turibmizki Usmonlilarning importi eksportiga nisbatan juda yuqori bo'lgan, bu tabiyki Usmonlilar iqtisodi tushib borayotganidan va iqtisodiy tobelik oshib boroyatgnidan darak berardi. XIX asrda Usmonlilar nafaqat iqtisodiy jihatdan balki tashqi siyosatda ham o'z o'rnini yo'qota boshlagandi. 1826 yil bahorida Rus podshosi Nikolay I Mahmud II ga ultimatum qoyadi Moldaviya va Valaxiyaning to'liq imtiyozlarini va Serbiya avtonomiyasini tan olishni talab qiladi. Sulton Britaniya bosimi ostida oktyabrda Akkerman konvensiyani imzolashga to'g'ri keladi. Ushbu konvensiyada Ruslarning Kavkazdagi hukumronligi tan olinadi, shu jumladan Rus savdo kemalari Usmonlilar suv havzalarida bermalol suzib savdo qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yanicharlar yoq qilinganidan so'ng sultonga yangi armiya yi'g'ib o'z boshqoruvini tartibga keltirib olishiga yo'l qoyishmadi. Ammo konvensiyaning o'zi bilan qanoatlanmagan Rossiya Yunon qo'zg'olonchilriga taslim bo'lishni talab qiladi. Yana Britaniya bosimi ostida rozi bo'lishga majbur bo'ladi. 1827 yilning iyun oyida Usmonlilar Afinani egalash uchun yurush boshlaganida. Angliya shu yilning iyul oyida Londonda usmonlilarga qarshi Uchlik ittifoqini tuzadi va tabiyki urush boshlanishiga va Gretsiya mustqillikka erishishiga sabab bo'ladi. Britaniya, Fransiya va Rossiya uchlik alyansi Usmonlilarga qarshi Navarinodagi flotiga hujum boshlaydi. 57 kema va 8000 askar yo'q qilinganidan so'ng Usmonlilarni portda qolib ularga qarshilik ko'rsatishda ayblashadi. [4: 12]

Ko'p o'tmay 1832 yilda Misr hukumdori Mehmet ali Britaniya va Fransiya yordamida o'z mustqilligini mustahkamlab oladi. Ushbu hodisa usmonlilarni Rossiya bilan yaqinlashishiga imkoniyat yaratadi. Britaniya bilan endi qarama qarshi diplomatiya vujudga keladi. Garchi Britaniya bilan aloqalar sovuqlashsada XIX asrda Usmonlilar iqtisodi va tashqi siyosatida Buyuk Britaniyaning ta'siri katta edi.

Xullosa qilib aytganda Usmonlilar davlat kichik bir beylikda yuksak imperiyaga aylanib tashqi siyosatda anchagina ta'siriga ega davlatga aylanadi. Murod III Yelizaveta bilan olib borgan yozishmalarda bilish mumkinki XVI asrda Turk-ingliz aloqalari yangi cho'qiga chiqan edi. Va yozishmalardan bilish mumkinki ushbu davrda Usmonlilar har sohada anchagina qudrtaga ega bo'lganligini. Hatto Britaniyadek qudratli mamlakat Usmonlilarga ispanlarga qarshi siyosiy va diniy ittifoq tuzishni taklif qilgan. Xatda Yelizaveta Murod III ni "Turk imperiyasining eng qudratli hukumdori, Sharqiy imperiyaning yagona suveren manarxi" deb atagan. Qirolicha va Sulton o'rtasidagi yozishmalar 1580-yillarda ham davom etdi. Murod III ning vafotidan keyin ham sultonning onasi qirolicha bilan yozishmalarni davom ettirishi va ular sovg'alar ham almashishi. Yelizaveta sultonning onasiga shoxona arava va soat mexanizmi sovg'a qilgani tashqi siyosatda Usmonlilarni o'rni qanday bo'lganini ko'satadi. Ammo XIX asrga kelib Usmonlilar davlatida tanazul boshlanadi, asta-sekin jahon siyosati va iqtisodiyotida o'z ornini yo'ota boshlaydi. Britaniya ta'siri ostida ko'plab hudularni yoqota boshlaydi. Ohir oqibat boshqa qudratli davlatlarni o'zi bilan hisoblashishgacha olib kelgan yirik Usmonlilar imperiyasi bora-bora tashqi siyossatda o'zi o'sha davlatlar bilan hisoblashadigan mamlakatga aylana bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Петросян А.Ю «Османская империя. Великолепный султанат», ТД Алгоритм-2016
2. Рунг, Э.В. "Греко-персидские отношения в конце V – начале IV вв. до н. э." – Казань, 2009
3. Новичев, А.Д. "История Турции" В 4 т. Т. 1. Эпоха феодализма (XI–XVIII вв.). - Л.: Издательство Ленинградского университета, 1963. – 314 с.
4. Necla Geyikdağı. "The Evolution of British Commercial Diplomacy in the Ottoman Empire" - CONRESS - İKTİSAT VE SOSYAL BİLİMLERDE GÜNCEL ARAŞTIRMALAR
5. Bailey, F. E. "British Policy and the Turkish Reform Movement, A Study in Anglo-Turkish Relations, 1826-1853", Cambridge: Harvard University Press. – 1942
6. <https://www.mfa.gov.tr/relations-between-turkiye-and-the-united-kingdom.en.mfa> (Ministry of foreign affairs, Republic of Turkiye)